

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARI TALQINI**Suxanberdiyeva Sitara Sanjar qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Hazrat Alisher Navoiyning chizgilari naqadar go‘zal bo‘lib, ular insonda g‘azal janriga oshuftalik kasb etadi. Uning g‘azallarida ishq ifodalanadi. Uning "Deyin" radifli g‘azali boshqa ishqiy mavzudagi lirik she‘rlardan keskin farq qilmagandek, oshiq ma‘shuqaning, odatdagidek, chiroyini turli uzvlari, ya‘ni qoshi, ko‘zi, sochi, yuzi, labidan chiqqan so‘zlar va kiyimi, ya‘ni moviy ko‘ylagi, gulrang to‘ni ta‘rifi orqali tasvirlab, ishqiy iztiroblarini bayon etayotgandek tuyuladi. Biroq, aslida, buyuk shoir qalamining qudrati bilan ana shu so‘z va qiyoslar zamirida ajib bir badiiy go‘zallik yashiringan.

kalit so‘zlar: o‘xshatish, she‘riy san‘atlar, oshiqona so‘z, radifli g‘azal, vasf, qofiya.

ANNOTATION

Hazrat Alisher Navoi's lines are so beautiful, they make people fall in love with the ghazal genre. Love is expressed in his ghazals. His radif ghazal "Deyin" is not significantly different from other lyrical poems on romantic themes, as usual, the beauty of a lover is expressed in various parts, i.e. eyebrows, eyes, hair, face, words from lips and clothes. , i.e. the blue shirt, the pink dress, by describing it, it seems to describe his romantic anguish. However, in fact, with the power of the great poet's pen, a strange artistic beauty is hidden under these words and similes.

key words: simile, poetic arts, romantic speech, rhyming ghazal, adjective, rhyme.

Alisher Navoiy – buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi. Buyuk shoir va mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiydan milliy madaniyatimiz va abiyotimiz uchun bebaho ijodiy-ilmiy merosi qolgan. Alisher Navoiyning buyuk va bebaho nodir adabiy asarlari asrlar osha dunyo xalqlarini ham o‘ziga jalb etib kelmoqda. Alisher Navoiy yuksak ma’rifat egasi, g‘azal mullining sultonidir. Uning g‘azallarida nafislik ufurib turadi. Navoiyning g‘azallarini o‘qish barobarida inson uning mazmun-mohiyatini anglab, ruhan tushunib boradi. Navoiyning g‘azallarida ishq kuylanadi, yor vasfiga oshuftalik motivi ilgari suriladi.

Alisher Navoiy nafaqat turkiy tilda, balki fors tilida ham ijod qilgan. U turkiy tilda yozgan asarlarida Navoiy, fors tilidagi asarlariga Foniyl taxallusini qo‘llagan. Uning g‘azallarida oshiqona so‘z mavjud. Jumladan, uning "Deyin" radifli g‘azalini tahlil etadigan bo‘lsak, g‘azal umumiy tavsifda juda go‘zal ma’no kasb etadi.

Qoshi yosinmu deyin...

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,

Ko‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?

Ko‘zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,

Bu kudurat aro ruxsori safosinmu deyin?

G‘azalda ohangdorlik faqat qofiya va radif orqaligina ta’minlanmaydi. Baytlarning birinchi qismidayoq ohangdorlik mavjud. Baytlarning har birida tushunchalar ifodalanadi. Jumladan, birinchi baytdayoq yorning qoshi va ko‘zi ifodalanadi. Bu orqali uning qoshi egik va ko‘zlarining naqadar go‘zal qora rangga ega ekanligi ma’lum bo‘ladi. Ikkinchi baytda esa "ko‘z qahri" va "kipriki zahri" haqida so‘z boradi. Uning go‘zalligi, vasfi va jamolida aks etgan go‘zalliklar tasvirlanadi. Uchinchi baytda oshiqning yoq hajrida jafu chekkanligini, ishqida yonganini bildiradi. Bu yerda unga izhor va uning vasliga yetishish umidi bor. G‘azalning boshqa baytlarida ham shu kabi oshiqona so‘z va yorning iztiroblari aks etadi. To‘rtinchi

baytda yorning "zulfi" tilga olinadi. Oshiq uchun yorning zulfi uning sochlarining uzunligi-yu, tim qora tunga qiyos qilinishi tasvirlab kelinadi. Albatta, g'azallarida tasvirlanadigan parilar juda go'zal va betakror tasvirlanadi. Ba'zan bu tasviriy ifodalar bilan birga mubolag'a va turli she'riy san'atlar ham ifodalalanadi. Yorning qoshi, ko'zi va boshqa diltortar xusni tashxis orqali jonlantirilib gulga, jonsiz predmetlardan kamonga va boshqa vositalarga o'xshatiladi. Beshinchi baytda yorning qaddi niholga qiyoslanadi. Oshiq uchun sevimli yoq hamisha nozik va niholdek nafis tasvirlanadi. Ko'p g'azallarda uchragani kabi yor qaddi sarv daraxtiga qiyoslanishi ham kuzatiladi. Bu esa uning tik qomatga ega ekanligidan dalolat berishga xizmat qiladi. Navoiy g'azallarida ham bu kabi tasviriy ifodalar va o'xshatishlar juda go'zal qalamga olinadi. Navoiy ajib sir ila ajoyib go'zallikni bunyod etadi. Ushbu g'azal hazrat Navoiyning she'rxon tuyg'ularini titroqqa solib, uning tafakkur tarziga o'zgarishlar kiritadigan she'rlaridan biri bo'lib, u ishqiy-tasavvufiy mavzudadir.

Mazkur g'azalda tasviriy ifodalardan tashqari, she'riy san'atlar ham joy olgan. Baytlarda uchraydigan tazod san'ati buning yorqin dalilidir. Jumladan, dard va davo, hajr va yor vasfiga erishmoqlik so'zga olinadi. Bu esa g'azalning qimmati oshishiga xizmat qiladi. Umuman, g'azal tahlillari asarning mazmun-mundariyasi, badiiy obrazlar tizimi, shoirning san'atkorlik mahorati haqida yaxlit, qamrovli tasavvur hosil qiladi. Navoiy qalamining qudrati nechog'lik kuchga ega ekanligini birgina shu g'azal orqali anglab yetish mushkul emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://tafakkur.net/qoshi-yosinmu-deyin/alisher-navoiy.uz>
2. <https://fayllar.org/birinchi-qism.html?page=7>
3. <https://anarim.az/img/search.php?newwindow=1&safe=off&hl=az&q=Navoiyning+boshdan+oyoq+savol+javob+tarzida+yozilgan+gazali&sa=X&ved=2ahUKEwjXztmskLXzAhW7CRAIHXXGC18Q1QJ6BAgAEAc>
4. <https://yuz.uz/uz/news/bir-gazal-tarixiyoxud-alisher-navoiy-hayotida-inson-rizoligining-muqaddasligi>